

## KASANACHILARNING MEHNATINI HUQUQIY JIHATDAN TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**O'razliyeva Rushana Abduvahob qizi**

Navoiy viloyati yuridik texnikumi

Telefon: +998918560510

[Orazaliyevrushana@mail.ru](mailto:Orazaliyevrushana@mail.ru)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11214885>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola kasanachilik, kasanachilik turlar kasanachilarning mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Kasanachilik, kasanachilik turlari, do'ppido'zlik, temirchilik, atlas va adraz to'qish, milliy taqinchoqlar yasash, kandakorlik.

### SPECIFIC CHARACTERISTICS OF LEGAL REGULATION OF THE WORK OF HOMEWORKERS

**Abstract.** This article talks about the special features of the legal regulation of the labor of domestic workers, types of domestic farming.

**Key words:** Homemaking, types of homemaking, hat making, blacksmithing, atlas and adraz weaving, making national jewelry, kandakorry.

### ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДА НАМОДНИКОВ

**Аннотация.** В данной статье говорится об особенностях правового регулирования труда поселенцев, видах приусадебных хозяйств.

**Ключевые слова:** Домашнее хозяйство, виды домашнего хозяйства, шляпное дело, кузнечное дело, плетение атласа и адраза, изготовление национальных украшений, кандакорры.

Hozirga kunda iqtisodiy adabiyotlarda kasanachilik va uning mazmuni, uni yuritishning o'ziga xos xususiyatlarini asoslab berishga xarakter qilingan bir qancha qarashlar mavjud. Ba'zi adabiyotlarda kasanachilikga "uy ishi" tushunchasi deb ta'rif beriladi.

Mehnat shartnomasiga muvofiq jismoniy shaxs (kasanachi) tomonidan o'z yashash joyi bo'yicha yoki kasanachiga yoxud uning oila a'zolariga tegishli bo'lgan yoki kasanachi tomonidan ijaraga olingan boshqa xonalarda ish beruvchining buyurtmalari bo'yicha tovarlar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish borasida amalga oshiriladigan ish kasanachilik hisoblanadi.

O'n olti yoshga yetgan shaxs kasanachi bo'lishi mumkin.

Hozirgi zamonda aholini samarali bandligini ta'minlash, yalpi ichki mahsulot hajmini ko'paytirish va oila byudjeti daromadini oshirish muammosini hal etishda kasanachilikni o'rni beqiyosdir.

Kasanachilik yurtimizda fuqarolarni, birinchi navbatda xotin-qizlarni, ayniqsa ko'p bolali ayollarni, yordamga muhtoj nogironlar va mehnat qobiliyati cheklangan boshqa shaxslarni ishlab chiqarish faoliyatiga jalb etish uchun muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda.

Yirik sanoat korxonalarida boshqa tarmoqlardagi yirik korxonalar va kichik sanoatkor xonalari bilan kasanachilik o'rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirishning asosiy maqsadi aholining ish bilan band bo'lmagan qismini ish bilan ta'minlash orqali ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirish hamda mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada barqarorlashtirishdir.

Kasanachilik amalga oshirish uchun kasanachida bino yoki turar joy mavjud bo'lsa uning faoliyatiga ruhsat beriladi.

Quyidagilarni talab qiladigan ishlarni kasanachi tomonidan (xizmatlarni) bajarishiga yo'l qo'yilmaydi:

-qonunchilikda belgilangan faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirish huquqi uchun litsenziya;

-uyda kuch ishlatiladigan, ko'p energiya sarflanadigan va texnik jihatdan murakkab asbob-uskunalar, shuningdek xavfli kimyoviy vositalardan foydalanishni;

Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash jarayonlari jadal sur'atlar kechayotgani ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar umuman aholining ijtimoiy muhofaza qilishni, jumladan, korxonalar negizida kasanachilikni tashkil etish va ularni faoliyatini rivojlantirish ularni muhofaza qilishni nihoyatda muhim vazifalardan biriga aylantirdi.

Bunday o'zgarishlar fuqarolarning ijtimoiy muhofazalanishini kuchaytiradi, ikkinchi tomondan esa, inson faoliyatining ayrim muhim tomonlarida ijtimoiy muhofaza qilish bo'yicha ko'proq kuch sarflanishini: ishsizlikdan, inflyatsiyadan, kasanachilik orqali aholini ish bilan bandligining va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarini yuqori bosqichlarga olib chiqadi.

Aholining kasanachilik bilan shug'illanmoqchi bo'lgan qismi bilan ham mehnat shartnomasi tuziladi. Ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasida mehnat vazifasi, mehnatga haq to'lash, xomashyo, materiallar va tayyor mahsulotlarni qabul qilish, kasanachi tomonidan o'z vazifalarini amalga oshirish uchun asbob-uskunalar, jihozlar, butlovchi buyumlar, xomashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlarni berish tartibi, kasanachining aybiga bilan materiallar, uskunalar, asboblarning buzilishi, va mahsulotning to'liq yoki qisman yaroqsizligi bilan bog'liq moddiy zararining o'rnini ish beruvchiga qoplash shartlari kiritiladi.

Kasanachi ishlab chiqarish topshirig'ining qancha vaqt talab qilishiga qarab mehnat shartnomasidagi shartlardan kelib chiqqan holda o'zi uchun ish vaqti davomiyligini, ish jadvalini va tartibini mustaqil ravishda belgilashi mumkin.

Kasanachining yillik mehnat ta'tili davomiyligi yigirma bir kalendar kundan kam bo'lmasligi kerak. Kasanachiga to'lanadigan ish haqi kasanachi mehnat normalarini va mehnat majburiyatlarini bajarsa, qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan kam bo'lmasligi kerak va biron-bir eng yuqori miqdor bilan cheklanmaydi.

Kasanachilikning turlari:

1. Qayta ishlangan jundan kiyimlar va boshqa buyumlar to'qish
2. Uy sharoitida loydan tandir tayyorlash
3. Atlas va adras to'qish
4. Mayda munchoq (biser) tikish
5. Do'ppido'zlik mahsulotlarini uy sharoitida tayyorlash
6. Temirchilik mahsulotlarini uy sharoitida tayyorlash
7. Asalarichilik, shuningdek, asalari uyasi va ramkalarini yasash
8. Quroqchilik usulida ko'ylak, ko'rpa va yopinchiqlar tikish
9. Qo'ziqorinlarni terish, uy sharoitlarida yetishtirish va sotish
10. Pichoq tayyorlash, charxlash va sotish
11. Qog'ozdan qutilar, banderollar tayyorlash

12. Uy sharoitida issiqxona mahsulotlarini yetishtirish
13. Tayyor mahsulotga etiketka biriktirish

#### **REFERENCES**

1. Mehnat kodeksi
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "O'rindoshlik asosida hamda bir necha kasbda va lavozimda ishlash tartibi to'g'risida"gi nizomi
3. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)